

# Uch tomonlama shartnomalar imzolandi.



Viloyat hokimi U.B.Qosimov tomonidan o'tkazilgan yig'ilishda berilgan topshiriqlarning ijrosini ta'minlash maqsadida bugun Termiz shahar hokimi O'.To'rayev tadbirkor "Termiz tezkor qurilish" ITQK rahbari H.Allamurodov bilan birgalikda Surxondaryo arxitektura va qurilish texnikumiga tashrif buyurdi.

Tashrif davomida qurilish texnikumida yoshlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, o'quv ustaxonasi faoliyati va o'quvchilarni kasbga o'rgatish jarayonlari bilan tanishilib, texnikum o'quvchilari va o'qituvchilari bilan samimiy muloqot qilindi hamda o'zaro fikr almashildi.

Uchrashuv so'ngida "Termiz tezkor qurilish" ITQK rahbari H.Allamurodov, Arxitektura va qurilish texnikumi direktori O'.Omonov va texnikumning o'quvchilari o'rtasida uch tomonlama shartnomalar imzolanib, o'quvchilarni zamonaviy kasblarga o'rgatish, ularning amaliyot o'tashlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va bitirgandan so'ng ishga qabul qilish hamda doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi muhim masalalar

kelishib olindi.

Ma'lumot o'rnida qayd etish lozimki, ushbu texnikumda bugungi kunda 6 ta kasb bo'yicha 202 nafar o'quvchilarga 18 nafar ishlab chiqarish ta'lim ustalari va pedagog xodimlar kasb-hunar o'rgatib kelishmoqda.